NUTQ ILDIZLARI: NORMAL RIVOJLANISHDAN NUTQ NUQSONIGACHA

Naxshibanova Dilafruz Baxrom qizi
ATMU, Maxsus pedagogika 1-bosqich talabasi
e-mail: db.naxshibanova@gmail.com

Annotatsiya. Nutq — odamlarning o‘zaro munosabatda bo‘lishi, aloqa boshlashida asosiy qurol bo‘lib, kishi o‘z fikri, xohish istaklarini nutq orqali atrodagilarga bildirishi, o‘z kechinmalarini ifoda etishi mumkin. Ana shuning uchun ham nutq kishi fikrlash qobiliyatining asosi, uning bir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada inson kamolotining eng muhim omili bo‘lgan nutqning shakllanish bosqichlari, uning fiziologik va psixologik asoslari hamda nutqiy rivojlanishga ta’sir etuvchi ekzogen va endogen omillar tahlil qilingan. Maqolada nutq buzilishlarini bartaraf etishda zamonaviy logopedik ishlar hamda metodlarni tashkil etish kabi masalalar ham o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar. nutq rivojlanishi, passiv nutq, dislaliya, duduqlanish, rinolaliya, logopedik ta’sir, didaktik tamoyil, psixodiagnostik test, perinatal davr, kompensatsiya.

Аннотация: Речь является основным средством общения между людьми, с помощью которого человек выражает свои мысли и желания, а также передаёт окружающим свои внутренние переживания. Поэтому речь считается важнейшей основой и неотъемлемой частью мышления человека. В данной статье проанализированы этапы формирования речи, её физиологические и психологические основы, а также экзогенные и эндогенные факторы, влияющие на развитие речи. Кроме того, освещены вопросы применения современных логопедических подходов и методов в устранении речевых нарушений.

Ключевые слова: развитие речи, пассивная речь, дислалия, заикание, ринолалия, логопедическое воздействие, дидактические принципы, психодиагностический тест, перинатальный период, компенсация.

Annotation: Speech is the main tool of communication between people, serving as a primary means of establishing interaction. Through speech, a person can express their thoughts, wishes, and desires, as well as convey their inner experiences to others. Therefore, speech serves as the foundation of a person’s thinking ability and as one of its key instruments. This article analyzes the stages of speech formation, its physiological and psychological foundations, as well as exogenous and endogenous factors influencing speech development. The article also addresses issues related to the organization of modern speech therapy practices and methods in overcoming speech disorders.

Keywords: speech development, passive speech, dyslalia, stuttering, rhinolalia, speech therapy intervention, didactic principle, psychodiagnostic test, perinatal period, compensation.

Kirish. Nutq — bu inson tomonidan so‘z yoki tovushlar yordamida fikr va his-tuyg‘ularni ifodalash jarayoni bo‘lib, u ko‘plab anatomik va fiziologik tizimlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lib, nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olishi, fikrlay bilishidir. Turli tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib, payvasta bo‘lib qo‘shilishidan yuzaga keladigan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi. Ushbu murakkab jarayonning shakllanishi bola dunyoga kelgan ilk soniyalardanoq boshlanadi.

Asosiy qism. Ma’lumki, chaqaloq tug‘ilgan zahoti chinqirib yig‘lashga tushadi. Chaqaloqning yig‘lashi ochlikka, og‘riqqa, sovuqqa, o‘zini bezovta qilayotgan boshqa ta’sirotlarga bo‘lgan aks ta’sirdir. Lekin buning chaqaloq o‘sishi uchun ijobiy ahamiyati ham bor:

chinqirib yig‘lash tufayli chaqaloqning nafas va nutq apparati o‘sadi, mustahkamlanadi. 3 oylikdan boshlab go‘dak „agu”, „a”, „u” kabi tovushlarni (guvrash) chiqara boshlaydi. 3-4 oylikda esa tevarak-atrofdagilar- ning nutqiga taqlid qilishga urinadi. 7-8 oylikda bola eshitgan so‘zlari bilan uning ma’nosi o‘rtasida mantiqiy bog ‘liqlik hosil qiladi (masalan, „aya” deganda onasiga qaraydi) — bu passiv nutqning shakllanishidir. 9-10 oylikda esa tovushlarni taqlidan talaffuz qila boshlashi bilan aktiv nutq yuzaga keladi. Dastlabki yillarda bolalar tovushlarni mukammal ayta olmaydilar, ko‘pincha so‘zlarni buzib yoki tushirib qoldirib talaffuz qiladilar (masalan, „ber” o‘rniga „be”, „sariyoq” o‘rniga „sayrog”). Buning asosiy sababi nutq apparati va oliy nerv faoliyatining hali yetarli darajada rivojlanmaganligidir.Bolaning lug‘at boyligi juda tez o‘sib boradi: Ikki yashar bolalarning lug ‘atidagi so ‘z boyligi 250–400 ga yetsa, 7 yoshda bu ko‘rsatkich 3000–3500 ta so‘zni tashkil etadi. Lug‘at boyligining o‘sishi bolaning tarbiyalanish muhitiga va uning o‘ziga xos xususiyatlariga bevosita bog‘liq. Bir yarim yoshdan keyin, ayniqsa 3 yoshga borib bola ona tilining grammatik tuzilishini tez o‘zlashtiradi. Dastlab bir so‘zdan iborat gaplar („koptok” — „koptokni ber” ma’nosida) ishlatilsa, 2 yoshdan boshlab sodda gaplar tuza boshlaydi. 2,5 yoshdan 5 yoshgacha bo ‘lgan davrda bolalarda „so‘z yasash” hodisasi kuzatiladi (o‘zi bilgan so‘z shakllaridan yangi so‘zlar yasash). 7 yoshga yetganda bola og ‘zaki nutq grammatikasini amaliy egallab, maktab ta’limiga tayyor bo ‘ladi.Maktabda ta’lim olish jarayonida nutq ongli ravishda shakllanadi. O‘quvchi grammatik qoidalarni o‘rganish orqali o‘z fikrini aniq, ravshan va izchil bayon qilishni, monologik nutqni va yozma nutqni egallaydi.

Me’yorda bolalar nutqining rivojlanishi — bu bolaning turli yosh davrlarida nutq qobiliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini anglatadi. Nutq rivojlani- shining har bir bosqichi bolaning fiziologik va psixologik holatiga ta’sir etadi. Nutq rivojlanishining me’yorda bo ‘lishi bolaning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini mustahkamlash, muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Nutq rivojlanishining me’yorda bo‘lishi bolaning o‘zining atrofidagi dunyo bilan to‘g‘ri muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi. Nutqni rivojlantirishning har bir bosqichi bolaning o‘rganishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Nutqning rivojla- nishida lingvistik jarayonlar katta o‘rin tutadi, chunki so ‘zlar, gaplar va jumlalar orqali bolaning fikrini ifoda etish imkoniyatlari kengayadi. Nutq rivojlanishi bolaning leksika, talaffuz, sintaksis va semantika kabi asosiy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Nutq rivojlanishi psixologik omillarga ham ta’sir qiladi. Bolalar nutqi psixologik jihatdan ham tarbiyalanadi, ya’ni bolaning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga qarab nutqning rivojlanishida ijobiy o’zgarishlar kuzatiladi. Ijtimoiy muhit ham nutq rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi, chunki bolalar nutqni atrof-muhitdan, oila va jamiyatdan o‘rganib boradilar. Nutq rivojlanishini qo ‘llab-quvvatlash va uni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish pedagogik yondashuvni talab qiladi.

Bola nutqining rivojlanishida tashqi noqulay sharoitlar natijasida kechikishlar va buzilishlar kuzatiladi. Bunda ijobiy emotsional muhitning yo ‘qligi, haddan tashqari shovqin-suronli muhit ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.Nutq taqlid asosida rivojlanadi. Shu sababli ayrim nutqiy kamchiliklar (talaffuzning aniq emasligi, duduqlanish, nutq tempining buzilishi va boshqalar) asosida taqlid yotadi.Nutq kamchiliklari ko‘pincha turli xil psixik travmalardan yuzaga keladi (qo‘rquv, yaqin odamini yo‘qotganda hayajonlanish, oiladagi uzoq davom etayotgan psixik travmalovchi vaziyat va h.k.). Bu nutq rivojlanishini kechiktiradi, ayniqsa, kuchli psixik travmalarda bolalarda psixogen nutqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi: mutizm, nevrotik duduqlanish.

Nutqning yoshga qarab rivojlanish dinamikasi hayotining birinchi yillarida organizm genotipiga va unga ta’sir qiluvchi atrof-muhitga bog ‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Nutq funksional tizimining rivojlanishi uchun Markaziy Nerv Sistemasining normal yetukligi va ishlab turishi muhimdir.

Nutq buzilishlarining kelib chiqishida ekzogen (tashqi) va organik omillar muhim rol o‘ynaydi. Ta’sir etish vaqtiga ko‘ra esa:

1. Homilalik (perinatal) — bolaning ona qornidalik vaqtidagi ta’sirlar.
2. Tug‘ruq vaqtidagi jarohatlar (natal).

3. Tug‘ruqdan keyingi davrda (postnatal) turli xil zararli omillarning ta’siri.

Nutq harakat mexanizmini ta’minlovchi miyaning ma’lum bir sohasidagi jarohat o‘chog‘i natijasida asosan nutqning tovush talaffuz tomonida buzilishlar vujudga keladi — dizartriya.

Nutq buzilishlari etiologiyasida ona va homila qonining immunologik jihatdan mos kelmasligi ham muhim rol o‘ynaydi (rezus-omil, eritrotsit antigenlari bo‘yicha). Rezus yoki antitelo guruhlari yo‘ldosh orqali o‘tib homila eritrotsitlarining bo’linishini keltirib chiqaradi.Buning natijasida eritrotsitlardan MNS uchun zaharli bo’lgan modda — billirubin ajraladi. Uning ta’siri ostida miyaning po‘stloq osti bo‘limlari, eshituv yadrolari jarohatlanadi. Bu esa eshituvning buzilishi bilan birgalikda nutqning tovush talaffuz tomonining buzilishiga olib keladi.

Nutq rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, emotsional deprivatsiya (hissiy muloqot yetishmasligi) va hayotining birinchi yillarida bola bilan onaning o‘zaro aloqasi buzilishi nutq shakllanishiga salbiy ta’sir ko ‘rsatadi. Nutq funksiyasi normal rivojlanishi uchun bolaning yaqin kishilari bilan to‘g‘ri hissiy munosabatda bo ‘lishi talab etiladi.

Nutq buzilishlari etiologiyasida nasliy omillar ham ma’lum ahamiyatga ega. Ko‘pincha, ular, hatto ahamiyatsiz omillar ta’siri ostida nutq patologiyalarini yuzaga keltiruvchi „moyillik” vazifasini bajaradilar. Ayrim holatlarda nasliy omillar boshlovchi sabab sifatida ishtirok etadi. Masalan, adabiyotlarda shunday ma’lumotlar keltiriladi: Tanglay yoriqligi bilan shartlangan Rinolaliya 10% – 30% hollarda nasliy omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, Rinolaliyaning nisbiy shakllari chastotasi bor-yo ‘g ‘i 1,31% ni tashkil etar ekan.

Duduqlanuvchilar orasida nasliy og‘irlik 17,5% ni tashkil qiladi. Yozma nutq buzilishlarining kelib chiqishida (disgrafiya, disleksiya) nasliy omillarning roli aniqlangan. Nutq buzilishlarini kelib chiqishida nasliy omillar, odatda, ekzogen-organik va ijtimoiy omillar bilan birgalikda keladi. Shuningdek, ular ayrim nutq buzilishlarining keltirib chiqarishda boshlovchi omil bo‘lib xizmat qiladilar. Bularga xromosoma sindromi va nerv tizimining nasliy-degenerativ kasalliklarida kuzati- luvchi nutq buzilishlari nomi bilan alohida guruhni tashkil qiladi. Ularning xususiyati kasallikning o‘zidan kelib chiqadi.

Nutq buzilishini o‘rganishda va tuzatishda logopediya fani nutq va fikrning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi, anomal bolaning rivojlanishidagi umumiy va maxsus qonuniyatlarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamkorlikda rivojlanishi haqidagi, ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri haqidagi, ruhiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi.

Nutq buzilishlari va ularni tuzatishdagi muhim muammolarni hal qilish maqsadida logopediya quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: sistemalilik, komplekslilik, rivojlanish tamoyilini, nutq buzilishini bolaning psixik rivojlanishidagi boshqa tomonlari bilan o‘zaro bog‘liq holda qarab chiqish, faoliyatli yondashuv, ontogenetik tamoyil, etiologiya va mexanizmlarni hisobga olish tamoyili (etiopatogenetik tamoyil), nuqsonli nutqning buzilish alomatlari va tuzilishini hisobga olish, umumdidaktik va boshqa tamoyillar.

Nutq buzilishlarini va ularni tuzatish jarayonida anomal bolalar rivojlanishi ning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini hisobga olish muhimdir. Rivojlanish tamoyili, shuningdek, bolaning yaqin doirasida o‘rin olgan ma’lum vazifalar, qiyinchiliklar bosqichlarini logopedik ish jarayoniga ajratishni ham ko‘zda tutadi. Nutqi buzilgan bolalarni va ularni tekshirish, shuningdek, ular bilan olib boriladigan logopedik ishni tashkil qilish bolaning yetakchi faoliyatlarini (predmetli-amaliy, o‘yin, tashkiliy) hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tuzatish — logopedik ta’sir metodikasini ishlab chiqish nutq shakllari va vazifalari namoyon bo ‘lish izchilligini, shuningdek, bolaning ontogenezidagi (notogenetik tamoyil) faoliyat turlarini hisobga olgan holda olib boriladi.. Nutq buzilishlarini samarali logopedik tuzatish uchun buzilishning har bir alohida holda buzilish etiologiyasi, mexanizmlari, alomatlarini aniqlash, yetakchi buzilishlarni ajratib ko ‘rsatish, nuqson tuzilishidagi nutqiy va nutqsiz belgilarning o‘zaro

munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq buzilishlarini o‘rganish va tuzatishda didaktik tamoyillar: ko‘rgazmalilik, tushunarlilik, onglilik, yakka tartibda yondashish va boshqalar muhim o‘rin tutadi. Logopediya fani metodlarini shartli ravishda bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh — tashkiliy metodlar: qiyosiy longityudinal (dinamikada o‘rganish), kompleksli. Ikkinchi guruhni empirik metodlar tashkil etadi: observatsion (kuzatish), eksperimental (laboratoriya, tabiiy, shakllantiruvchi yoki psixologik-pedagogik sinov), psixodiagnostik (testlar, standartlashtirilgan va xayoliy loyihalashtirilgan, anketalar, suhbatlar, intervyu) faoliyatini, shuning bilan bir qatorda nutqiy faoliyatini ham tahlil qilishning praksimetrik usullari, biografik metod (anamnestik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish). Uchinchi guruhga olingan ma’lumotlarni miqdor (matematik-statistik) va sifat analizi kiradi. Bunda olingan ma’lumotlar EHM ni qo‘llagan holda mashinada ishlab chiqiladi. To‘rtinchi guruh- interpretatsion metodlar, uslublar, o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni nazariy tadqiq qilish usullari (qismlar va butunlik o‘rtasidagi, alohida jihatlar va umuman hodisa o‘rtasidagi, funksiyalar va shaxs o‘rtasidagi hamda boshqa aloqalar). Tadqiqotning obyektivligini ta’minlovchi texnik vositalar: kompyuter, intonograflar, spektograflar, nazometrlar, video nutq, fonograflar, spirometr va boshqa apparaturalar, shuningdek, butun nutq faoliyati va uning ayrim komponentlarini dinamikada o‘rganishga imkon beruvchi rentgenokinofotografiya, glottografiya, kinematografiya, elektromiografiyalardan keng foydalaniladi.

Logopedik ta’sir nutqiy faoliyat buzilishini tuzatish, nutqi buzilgan bolalarni o‘qitish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni o‘z ichiga oladi. Nutq buzilishini tuzatish nutq buzilishi alomatini to‘g‘rilash yoki yengillashtirishdir.

Kompensatsiya (muzlash) organizmning qandaydir harakatlarining yo‘qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funksiyalarni qayta qurishning ko‘p qirrali, murakkab jarayonini o‘zida mujassam etadi. To‘liq shakllanmagan va buzilgan nutqli hamda nutqsiz bolalarda rivojlanishli va tiklanishli logopedik ta’sir etishning maxsus tizimidan foydalanish asosida amalga oshadi. Bu jarayonda kompensatsiya shakllanadi.

O’qitish – ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko ‘nikmalarni o‘zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rahbarlikni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. O‘qitish jarayoni uzviy birlikdagi ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Tarbiyalash jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida sifatlarining shakllanish jarayonini maqsadga yo’naltirgan holda uzluksiz, tashkiliy tarzda boshqarish demakdir. Qayta tarbiyalash jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o‘ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi.

Bosh miya ma’lum qismining xastalanishi hollaridagi logopedik ishlarda buzilgan nutqiy va nutqsiz vazifalarni tiklashga qaratilgan tiklovchi ta’limdan foydalaniladi. Bunday ta’lim asosida harakatning saqlanib qolgan qismiga tayanish va barcha funksional tizimni qayta qurish yotadi. „Nutqni tiklash” atamasi afaziya davridagi nutq buzilishining, aksincha, rivojlanishini belgilash uchun qo‘llaniladi. Logopedik ta’sir nutq buzilishlarini bartaraf etishga (masalan, disleksiyada), to‘g‘rilashga (masalan, tovushni qo‘yish) ham, nutqsiz buzilishlarning salbiy alomatlarini (ruhiy xususiyatlarini) yo‘qotishga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Logopedik diagnostika nutq buzilishining mohiyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u og‘zaki va yozma nutqni o‘rganish, artikulyatsion apparat holatini tekshirish, nafas va fonatsiyani baholash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Diagnostika natijalariga ko‘ra har bir bola uchun maxsus individual korreksion dastur ishlab chiqiladi. Bu dasturda artikulyatsion mashqlar, nafas olish va fonatsiya mashqlari, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish usullari, leksik-grammatik tizimni rivojlantirish va kommunikativ ko ‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar kiritiladi. Korreksion jarayon davomida bolaning psixologik holatiga ham alohida e’tibor beriladi. Nutq buzilishiga ega bo‘lgan bolalarda

ko ‘pincha o‘ziga ishonchsizlik, komplekslar, ijtimoiy izolyatsiya holatlari kuzatiladi. Shu sababli logoped psixolog bilan hamkorlikda bolaning ijtimoiy moslashuvi, o‘ziga ishonchini oshirish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi.

Natijada to‘g‘ri tashkil etilgan va tizimli olib borilgan logopedik korreksion ishlar yordamida nutq apparatining funksional faoliyati tiklanadi, bolalarning nutqi aniq, ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanadi. Eng asosiysi, bola o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Korreksion logopedik ishlar samaradorligi bir qancha omillarga bog‘liq: buzilish darajasi, bolaning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, ota-onalar va o‘qi- tuvchilarning yordam va qo‘llab-quvvatlashi. Shu sababli logopedik mashg‘u- lotlarda ota-onalarning faol ishtiroki va bolaga doimiy rag‘bat berilishi nihoyatda muhimdir.

Bugungi kunda zamonaviy logopediya nutq apparatining faoliyat kamchilik- larini bartaraf etish bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega. Innovatsion texnologiyalar, yangi metodikalar, multimodal yondashuvlar yordamida har bir bola uchun indivi-dual, natijador korreksion dasturlar tuzilmoqda. Shu bilan birga, erta yoshdan boshlab nutq buzilishlarini aniqlash va korreksiyalashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ham keng miqyosda olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, nutq apparati tuzilishidagi faoliyat kamchiliklarini bartaraf etish va to‘g‘ri nutqni shakllantirish uchun tizimli, ilmiy asoslangan, bolaga moslashtirilgan logopedik korreksion ishlarni olib borish zarur. Har bir bola o‘zining individual xususiyatlariga ko‘ra yondashishni talab qiladi, va har bir kichik yutuq uning kelajakdagi rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutq insonning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy kamoloti uchun eng muhim poydevor bo‘lib, uning buzilishi shunchaki talaffuzdagi xatolik emas, balki shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy omildir. Nutq nuqsonlarining oldini olish uchun homiladorlik davridan boshlab sog ‘lom turmush tarziga amal qilish, bola bilan muloqotda „bolalarcha” so‘zlashishdan qochib, to‘g‘ri va ravon nutq namunasini ko‘rsatish, shuningdek, gadjetlar o‘rniga jonli suhbat hamda mayda motorikani rivojlantiruvchi mashg ‘ulotlarga ustuvorlik berish lozim. Agarda nutq rivojlanishida kechikish yoki nuqsonlar kuzatilsa, „o‘zi o‘tib ketadi” degan yanglish qarash bilan vaqtni boy bermasdan, zudlik bilan logoped va tegishli mutaxassislarga murojaat qilish hamda uy sharoitida tavsiyalarni muntazam bajarish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Zero, ota-onalarning e‘tibori va mutaxassislar mahorati birlashgan joydagina har qanday nutqiy to‘siqlarni yengib o‘tish va bolaga erkin muloqot olamini hadya etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y, „Logopediya” –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashtiyoti, 2007. – 384b.
2. Raxmanova M.V. „Korreksion pedagogika va logopediya” – Toshkent: 2007.
3. Po‘latova P.M. „Maxsus pedagogika”–Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2014. – 260 b.
4. Z.J.Kurbanova Z.J. „Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish” – Qarshi, Ilm-fan ma’naviyat nashriyoti, 2025. - 403b.